



SHUKUR XOLMIRZAYEV HIKOYALARIDA TABIAT VA INSON MUNOSABATLARINING BADIY PSIXOLOGIK TALQINI

Nazirova Nargiza Odiljonovna

Farg'ona viloyati pedagoglarni yangi metodikalarga o'rgatish
milliy markazining Tillarni o'qitish metodikasi kafedrasida o'qituvchisi
<https://doi.org/10.5281/zenodo.10656603>

ARTICLE INFO

Qabul qilindi: 05-February 2024 yil
Ma'qullandi: 10- February 2024 yil
Nashr qilindi: 14- February 2024 yil

KEY WORDS

psixologizm, ichki dunyo,
psixologik tahlil, psixologik
parallellik

ABSTRACT

Maqola adabiyotda badiiy psixologizm, insonning ichki dunyosini badiiy bilish muammolariga bag'ishlangan. Shukur Xolmirzayevning "Omon ovchining o'limi" hikoyasi asosida psixologik tahlilning asosiy vositalari: psixologik holat, psixologik parallellik, nutq va portret xususiyatlari ko'rib chiqiladi.

Adabiyotda badiiy psixologizm inson shaxsiyatini atrofdagi olam hodisalari bilan murakkab bog'lanishlari, insonning ichki evrilishlari, qahramoning asliyatining eng yorqin chizgilarini nafaqat insonlar bilan bo'lgan munosabatlaridan, balki uning harakati va mulohazalaridan, ichki kurashi va ziddiyatlaridan ham anglab olish mumkin.

Badiiy asar tuzilishidagi psixologizm shakllarini aniqlash muhim ahamiyatga ega. Ularga Andrey Yesin quyidagicha ta'rif beradi: "Badiiy psixologizm ichki monolog va dialog, qahramoning ichki ziddiyati, psixologik mavzu detallari, personajning introspeksiya namoyon bo'ladi"¹

Badiiy psixologizmning ijodidagi g'oyaviy-estetik ahamiyati borasida adabiyotshunos olimlarning xilma-xil va hatto bir-biriga zid qarashlari mavjud. Bizning fikrimizcha, psixologizmni so'z san'atining umumiy belgisi sifatida talqin qiluvchi A. Jezuitov, V. Kompanetesning qarashlari eng maqbulidir. A. Jezuitov "badiiy psixologizm" tushunchasini uch qismga ajratadi: "Birinchidan, psixologizm so'z san'atining umumiy xususiyati, badiylik belgisi vazifasini bajaradi. Ma'lumki, san'at ob'ekti - yaxlit shaxs, shu jumladan uning ichki dunyosidir. Demak, har qanday haqiqiy san'at u yoki bu tarzda inson psixologiyasi bilan bog'liq. Ikkinchidan, psixologizm badiiy ijod natijasi sifatida, muallifning o'zi, uning qahramonlari psixologiyasida, to'liqrog'i ijtimoiy psixologiyaning badiiy tasviri sifatida namoyon bo'ladi. Ongli va aniqlovchi estetik tamoyil sifatida psixologizm badiiy ijodning asosiy va bevosita maqsadi sifatida xizmat qiladi. Tafakkur va taraqqiyotning bevosita ishtirokchisi inson bo'lib, badiiy psixologizm esa uni mujassamlash usul va shakllarini o'ziga xos tarzda maqsadli yo'naltirilishidir. Shunday qilib, insonning ichki dunyosini ochish usullari xilma-xildir. Har bir yozuvchi insonning ichki dunyosini, uning fikrlari va xatti-harakatlarini, tashqi dunyo va boshqa odamlar bilan munosabatlarini tahlil qilishning muayyan usullarini tanlaydi. Qahramonlarning ichki dunyosiga kirib borish jarayonida u "psixologik tahlilning

¹ Yesin.A.B. Adabiy asarni tahlil qilish tamoyillariva usullari. - 4-nashr. -M.,2002

ob'ektivlashtirilgan shakllarini (dialog, qahramonni boshqa odamlar tomonidan idrok etilishi) va sub'ektiv (ichki nutq, introspektsiya) mahorat bilan qahramonlarning fikrlari Zolotuxina psixologizm tushunchasiga quyidagicha ta'rif beradi: - "Badiiy psixologizm- muallifning ichki kechinmalar, inson ruhiyatining o'ziga xosliklari, uning shaxsiyat va jamiyat bilan munosabat strategiyasi haqidagi qarashlarini qahramon xarakterida aks ettirilishi.

Adabiyotshunoslikka oid ilmiy manbalarda badiiy psixologizmning uchta asosiy prinsiplari - dinamik prinsip, analitik prinsip va tipologik prinsip ajratib ko'rsatiladi. Dinamik prinsipda qahramon ruhiyati uning xatti-harakatlari, imo-ishoralari, turli hayotiy vaziyatlarda o'zini tutishi va gap-so'zlari orqali ifodalab beriladi. Tipologik prinsipda obraz ruhiyati uni shakllantirgan va qurshab turgan muhit shart-sharoitlari bilan bog'lab tasvirlab beriladi. Analitik prinsipda qahramon ichki kechinmalari, qalbidagi his-tuyg'ulari, tafakkur va mulohazasi, o'y-fikrlari dinamikasi tasvirlanadi. "Bunda bir hisdan boshqa his, bir o'ydan boshqa fikr o'sib chiqadi, ular bir-birini to'ldiradi, sifat jihatidan o'zgartiradi". Bu shakl personajlar taqdiri va tafakkurida keskin burilishlarni ko'rsatib berishga imkon beradi, shu sababli ham ayrim tadqiqotchilar "qalb dialektikasi" shakli deb ham ataydilar.

O'zbek adabiyotshunos olimi Dilmurod Quronov esa shunday ta'kidlaydi: "Badiiy psixologizm- badiiy asarda to'laqonli inson obrazini yaratishning muhim vositalaridan biri; personaj ruhiyatining ochib berilishi, xatti-harakatlari va gap-so'zlarining psixologik jihatdan asoslanishi, shu maqsadlarga xizmat qiluvchi usul va vositalarning jami. Yozuvchi personaj ruhiyatini bevosita yoki bilvosita tasvirlab berishi mumkin."² Bulardan shu ma'lumki, psixologizm har uchchala janr (she'riyat, nasr, dramaturgiya)da muhim ahamiyat kasb etadi va asarning ta'sirchanligi va mazmundorligini oshiradi, usiz asar to'liq va mukammal badiiy asar bo'la olmaydi, desak ham mubolag'a bo'lmaydi.

Ta'kidlab o'tish joizki, muallif badiiy obraz xarakteri va uning ruhiyatini ochib berishda yuqorida zikr etilgan uchchala shakldan birgalikda, bir-birini to'ldirgan holda foydalanishi mumkin. Bunda prinsiplardan biri yetakchi bo'lsa, qolgan ikkitasi uni to'ldirish uchun xizmat qiladi. Umumman olganda, badiiy psixologizmga oid tadqiqotlarda "xarakter" tushunchasi yetakchi o'rinni egallaydi. Sababi, bu yo'nalishdagi tadqiqotlar adabiyotshunoslik ilmiga oid bo'lsada, bir tomondan ruhiyatshunoslik ilmi bilan bevosita bog'liq bo'lib, mazkur ikki soha kesishmasiga asoslanadi. Bu esa o'z navbatida "xarakter" tushunchasini ham adabiyotshunoslik, ham ruhiyatshunoslik nuqtai nazaridan aniqlashtirib olishni taqazo etadi.

O'zbek adabiy tanqidida milliy nasrning poetika, uslub kabi turli muammolariga bag'ishlangan ilmiy izlanishlar salmoqli bo'lsada, lekin badiiy psixologizm bo'yicha barmoq bilan sanoqli ilmiy izlanishlarnigina topish mumkin. Shu sababli ham milliy nasrimizda badiiy psixologizm muammosi nafaqat nazariy, balki amaliy jihatdan ham dolzarb sanaladi. Aytish joizki, yozuvchilarning qay darajada psixologik tahlil tamoyillari va usullarini o'zlashtirganligi insonning ichki dunyosini tasvirlashdagi mahoratida namoyon bo'ladi va bu har bir kitobxonning o'sha ruhiy vaziyatni o'z "qalb filtridan" o'tkaza olishiga imkoniyat yaratadi. Adabiyotning birlamchi vazifalaridan biri bu-insonga hissiy (estetik) ta'sir o'tkazishidir. Shunday ijodkorlardan biri Shukur Xolmirzayev yartgan obrazlari bilan o'z kechinmalari o'rtasida ko'prik vazifasini o'tay olgan, qahramonining qalb kechinmalariga kitobxonni ishontira olgan san'atkordir.

² Quronov D. Adabiyotshunoslikka kirish. Toshkent. Abdulla Qodiriy nomidagi xalq nashriyoti. 2004

Shukur Xolmirzayev ‘Omon ovchining o‘limi’ hikoyasi qahramoni haqiqatni tevarakatrofdan, jamiyatdan, hattoki o‘zidan ham ruhiy sinishlardan qo‘rqmasdan izlashi ijodkor inson ruhiy dunyosiga chuqur kirib borishida ko‘ramiz. Bu esa inson dunyoqarashining ichki qatlamlarini bilishga intilish, inson qalbining yashirin burchaklariga kirib borish qobiliyatida namoyon bo‘ladi: “...Omon negadir bularni sira otmas, aksincha, ularni uzoq-uzoq tomosha qilishni yaxshi ko‘rar, ba‘zan kechalari tashqariga chiqib boyqush sayrashini eshitganda — yurak seskanishi qayda! — parishonxotir bo‘lib tek qolardi. Shunda u bu tun qushlarining mungli hamda nimasi bilandir tunga o‘xshab ketadigan unlariga allaqanday singishar, go‘yo o‘zi ham shu tunga, shu mungli unga, boyqushga aylanib qolardi...”³- ushbu parchada ham yozuvchi kitobxonga qahramonning ruhiy dunyosining noma'lum qismini, his-tuyg'ularini nozik nuqtalarigacha ochib berishda yozuvchi psixologik tahlilning deyarli barcha ma'lum shakllaridan foydalanadi va shu bilan birga psixologik parallelizm texnikasi keng qo‘llaniladi. “Omon ovchining o‘limi” hikoyasi qahramoni – Omonning ichki dunyosini ochishda ijodkor psixologik parallelizmdan foydalanadi. Qahramon fikrlari va xatti-harakatlari, tabiat manzaralari bilan inson ichki ruhiyatidagi keskinlik o‘rtasidagi uyg‘unlikni aks ettiruvchi badiiy tasvirlar bilan ochib berilgan. “.....Omon uning qoq manglayini nishonga olib otdi. Jonivor tepaga bir sakrab, pastga qulab ketdi. Shunda... uning o‘rnida yana bir kiyik paydo bo‘ldi. Omon miltiqni o‘qalay solib, uni ham otdi. U ham tepaga bir talpinib, quyiga uchdi. Keyin esa, shoxi gajak bir arxar ko‘rindi. Omon miltiqqa o‘q joylar ekan, allanechuk shoshar edi. Arxarning ham ajali yetgandek qochmasdan quyiga qarab turib qoldi. Omon uni ham otdi..”⁴ yuqoridagi parchani o‘qigan kitobxon qahramonning bu qadar keskin harakatlarini sababini anglay olmay qiynalsada, hikoya so‘ngida Omonning vafoti tasvirlaridan, o‘z ajali tomon shoshib ketayotgandek insonning ruhiy holati aks ettirilganini anglab yetadi. Omonni qaysidir o‘rinlarda hayvon instinktlari boshqaradi: boshqalarning irodasini bostirish, g‘olib bo‘lish, tabiatdanda kuchliroq bo‘lish istagi hukmron bo‘la boshlaydi. Kim birovning inini buzsa, o‘zinikini ham buzadi deganlaridek Omonning vafoti hammasiga o‘rinli javobdek hikoyaga yakun yasab beradi. Hayot va o‘lim falsafasini, vaxshiylikni to‘lovi arzon bo‘lmasligini Omonning dahshatli o‘limi tabiat va inson o‘rtasidagi murakkab psixologik muvozanatni badiiy psixologik tasviridir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Yesin.A.B. Adabiy asarni tahlil qilish tamoyillariva usullari.- 4-nashr.-M.,2002
2. Quronov D. Adabiyotshunoslikka kirish. Toshkent. Abdulla Qodiriy nomidagi xalq nashriyoti. 2004
- Xudoyberdiyev E. Adabiyotshunoslikka kirish. T.: “Sharq”, 2008
- D. Quronov, Z. Mamajonov, M. Sheraliyeva. Adabiyotshunoslik lug‘ati. Toshkent. “Akademnashr”. 2013.
- Uмуров X. Бадий психологизм ва ҳозирги ўзбек романчилиги. – Т.,Фан, 1983.
6. Shukur Xolmirzayev Tanlangan asarlar: 3 jildlik. 1-jild: hikoyalar.- T: "SHARQ", 2003.-448 b.
7. Shukur Xolmirzayev "Yo'ldoshlar" hikoyalar to'plami.

³ Shukur Xolmirzayev Tanlangan asarlar: 3 jildlik. 1-jild: hikoyalar.- T: "SHARQ", 2003.

⁴ Shukur Xolmirzayev Tanlangan asarlar: 3 jildlik. 1-jild: hikoyalar.- T: "SHARQ", 2003.